

O‘ZBEK VA URDU TILLARIDA SEMANTIK O‘XSHASH LEKSIK  
BIRLIKLAR: QIYOSIY LINGVOMADANIY TAHLIL

Muhammad Sajid Husain

*FarDu magistranti*

---

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada o‘zbek va urdu tillarida shaklan o‘xshash, ammo semantik jihatdan farqlanuvchi leksik birliklar qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida ayrim so‘zlarning ma’nosi farqlanishi, ba’zi birliklarning esa umumiy semantik qatlamni tashkil etishi aniqlanadi.*

**Kalit so‘zlar:** *o‘zbek tili, urdu tili, semantik tahlil, qiyosiy tilshunoslik, lingvomadaniyat, mushtarak so‘zlar*

---

**Аннотация:** *В статье проводится сравнительный анализ лексических единиц узбекского и урду языков, сходных по форме, но различающихся по значению. Выявлены семантические различия и общие лексические пласты двух языков.*

**Ключевые слова:** *узбекский язык, язык урду, семантический анализ, сравнительное языкознание, лингвокультура*

---

**Abstract:** *This article presents a comparative analysis of lexical units in Uzbek and Urdu that are similar in form but different in meaning. The study identifies semantic differences and shared lexical layers between the two languages.*

**Keywords:** *Uzbek language, Urdu language, semantic analysis, comparative linguistics, linguoculture.*

---

Til xalqlarning tarixiy rivojlanishi, madaniy aloqalari va ijtimoiy taraqqiyotini aks ettiruvchi muhim vosita hisoblanadi. O‘zbek va urdu tillari turli til oilalariga mansub bo‘lsa-da, tarixiy aloqalar, diniy omillar va madaniy integratsiya natijasida ko‘plab umumiy leksik birliklarga ega bo‘lgan. Ayniqsa, arab va fors tillari orqali kirib kelgan so‘zlar har ikki tilning lug‘at tarkibida muhim o‘rin egallaydi<sup>1</sup>.

Tilshunoslikda bunday birliklar mushtarak leksik birliklar sifatida o‘rganiladi. Biroq, ushbu birliklarning ayrimlari vaqt o‘tishi bilan semantik jihatdan farqlanib, turli ma’nolarni anglatadigan bo‘lib qolgan. Bu jarayon semantik divergensiya deb ataladi<sup>2</sup>.

Mazkur tadqiqotning maqsadi o‘zbek va urdu tillarida shaklan o‘xshash, ammo semantik jihatdan farqlanuvchi leksik birliklarni qiyosiy jihatdan tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil, semantik tahlil hamda lingvomadaniy tahlil metodlaridan foydalanilib, ikki til o‘rtasidagi mushtarak leksik birliklarning ma’no rivoji, qo‘llanish xususiyatlari va madaniy jihatlari o‘rganildi.

---

<sup>1</sup> Shamatov A. N. Markaziy Osiyo va Janubiy Osiyo xalqlari o‘rtasidagi lingvistik aloqalar. — Toshkent: Fan, 2010. — 87 b.

<sup>2</sup> Comrie B. The World’s Major Languages. — London: Routledge, 2009. — 214 p.

Semantik farqlanuvchi mushtarak birliklar tahlili:

Taklif-Takleef

O‘zbek tilida "taklif" biror ishni bajarishga chaqirish ma’nosini bildiradi. Urdu tilida esa "taklif" ko‘pincha qiyinchilik yoki muammo ma’nosida ishlatiladi. Bu semantik divergensiyaning yorqin misoli hisoblanadi<sup>3</sup>.

Qudrat-Qudrat

O‘zbek tilida "qudrat" inson kuchi ma’nosida qo‘llanadi. Urdu tilida esa ko‘proq ilohiy kuch ma’nosini bildiradi. Bu lingvomadaniy tafovutni ko‘rsatadi.

Asbob-Asbab

O‘zbek tilida asbob-vosita, urdu tilida esa asbab-sabab ma’nosini bildiradi. Bu semantik farqlanish jarayonining natijasidir. “Asbab” arab tilida ko‘plik shakli bo‘lib, sabablar ma’nosini bildiradi.

Hamshira-Hamshira

O‘zbek tilida tibbiyot xodimi, urdu tilida opa-singil ma’nosini bildiradi. Ushbu birlik fors tilidan kirib kelgan.

Adolat-Adalat

O‘zbek tilida adolat ma’nosini bildiradi.

Urdu tilida “adalat” sud ma’nosini bildiradi.

O‘zbekcha: Adolat jamiyat asosidir.

Urducha: Adalat ne faisla diya.

Bu birlik semantik yaqin birlik hisoblanadi.

Semantik o‘xshash birliklar:

O‘zbek va urdu tillari turli til oilalariga mansub bo‘lishiga qaramay, tarixiy, diniy va madaniy aloqalar natijasida ko‘plab mushtarak leksik birliklarga ega. Ayniqsa, arab va fors tillaridan kirib kelgan so‘zlar har ikki tilning lug‘at tarkibida muhim o‘rin egallaydi. Mazkur leksik birliklarning aksariyati semantik jihatdan o‘xshash bo‘lib, umumiy lingvomadaniy qatlamni tashkil etadi.<sup>4</sup>

Amal-Amal

O‘zbek tilida “amal” so‘zi ish, harakat, faoliyat ma’nosini bildiradi.

Urdu tilida ham “amal” so‘zi xuddi shu ma’noda qo‘llanadi.

O‘zbekcha: U yaxshi amallar qiladi.

Urducha: Namaz parhna ek nek amal hai.

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, “amal” so‘zi arab tilidan kirib kelgan bo‘lib, har ikki tilda semantik jihatdan o‘xshash ma’noda qo‘llanadi. Bu esa diniy va madaniy birliklar ta’sirida shakllangan mushtarak leksik qatlamni ko‘rsatadi<sup>5</sup>.

Hukm-Hukm

O‘zbek tilida “hukm” qaror yoki buyruq ma’nosini bildiradi.

Urdu tilida ham ayni ma’noda ishlatiladi.

<sup>3</sup> Ibrohimov A. Urdu-uzbek mushtarak so‘zlar. — Islomobod, 2007.

<sup>4</sup> Shamatov A. N. Markaziy Osiyo va Janubiy Osiyo madaniy aloqalari. — Toshkent: Fan, 2010. — 98 b.

<sup>5</sup> Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. — Toshkent: Fan, 2000. — 215 b.

O‘zbekcha: Sud hukm chiqardi.

Urducha: Adalat ne hukm diya.

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, “hukm” so‘zi arab tilidan kirib kelgan bo‘lib, har ikki tilda huquqiy termin sifatida qo‘llanadi<sup>6</sup>.

Izzat-Izzat

O‘zbek tilida hurmat va obro‘ ma’nosini bildiradi.

Urdu tilida ham ayni ma’noda qo‘llanadi.

O‘zbekcha: Kattalarni izzat qilish kerak.

Urducha: Uski izzat bohut hai.

Bu so‘z ham arab tilidan kirib kelgan bo‘lib, ikki til madaniyatida hurmat tushunchasini ifodalaydi.

Mansab-Mansab

O‘zbek tilida lavozim yoki martaba ma’nosini bildiradi.

Urdu tilida ham shu ma’noda ishlatiladi.

O‘zbekcha: U yuqori mansabga tayinlandi.

Urducha: Uska mansab buland hai.

Mazkur birlik fors tilidan kirib kelgan bo‘lib, tarixiy davlat boshqaruvi terminlari orqali shakllangan<sup>7</sup>.

Fazl-Fazl

O‘zbek tilida marhamat yoki yaxshilik ma’nosini bildiradi.

Urdu tilida ham shu ma’noda ishlatiladi.

O‘zbekcha: Bu Allohning fazli.

Urducha: Yeh Allah ka fazl hai.

Bu so‘z arab tilidan kirib kelgan diniy birlik hisoblanadi.

Qism-Qism

O‘zbek tilida bo‘lak ma’nosini bildiradi.

Urdu tilida ham shu ma’noda qo‘llanadi.

O‘zbekcha: Kitobning bir qismi yetishmayapti.

Urducha: Kitab ka ek qism kho gaya.

Ushbu leksik qatlam ham arab tilidan kirib kelgan mushtarak so‘z hisoblanadi.

Zamon-Zaman

O‘zbek tilida vaqt yoki davr ma’nosini bildiradi.

Urdu tilida ham xuddi shu ma’noda ishlatiladi.

O‘zbekcha: Hozirgi zamon tez o‘zgaradi.

Urducha: Is zaman mein ilm zaruri hai.

Ushbu birlik arab tilidan kirib kelgan mushtarak leksik qatlamga kiradi.

Iymon-Imaan

O‘zbek tilida e’tiqod ma’nosini bildiradi.

Urdu tilida ham shu ma’noda ishlatiladi.

<sup>6</sup> Narang G. C. Urdu Language and Literature. — New Delhi: Oxford University Press, 2004. — 134 p.

<sup>7</sup> Masica C. The Indo-Aryan Languages. — Cambridge University Press, 1991. — 245 p.

O‘zbekcha: Iymon insonni poklaydi.

Urducha: Imaan insaan ki taqat hai.

Sabab-Sabab

O‘zbek tilida sabab ma’nosini bildiradi.

Urdu tilida ham shu ma’noda qo‘llanadi.

O‘zbekcha: Bu ishning sababi nima?

Urducha: Iska sabab kya hai?

Ushbu birlik arab tilidan kirib kelgan bo‘lib, har ikki tilda sabab yoki omil ma’nosida qo‘llanadi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek va urdu tillaridagi semantik o‘xshash leksik birliklar arab va fors tillarining ta’siri, islom madaniyati hamda Markaziy Osiyo va Janubiy Osiyo xalqlari o‘rtasidagi tarixiy madaniy aloqalar natijasida shakllangan. Ushbu omillar ta’sirida ikki til lug‘at tarkibida umumiy lingvomadaniy qatlam yuzaga kelib, ko‘plab so‘zlar har ikki tilda o‘xshash semantik ma’noda qo‘llana boshlagan. Bu holat o‘zbek va urdu xalqlari o‘rtasidagi tarixiy, madaniy va ma’naviy yaqinlikni hamda tillararo o‘zaro ta’sir jarayonining uzviyligini ko‘rsatadi<sup>8</sup>.

Tadqiqot natijalari o‘zbek va urdu tillaridagi shaklan o‘xshash leksik birliklar semantik jihatdan turlicha rivojlanganligini ko‘rsatadi. Ayrim birliklar umumiy semantik qatlamni tashkil etsa, ayrimlari turli ma’nolarga ega bo‘lgan. Bu esa qiyosiy tilshunoslik va lingvomadaniyat tadqiqotlari uchun muhim ilmiy material hisoblanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Baskakov N.A. Turkic Languages.-Moscow: Nauka, 1962.
2. Comrie B. The World's Major Languages.-London: Routledge, 2009.
3. Ibrohimov A. Urducha-o‘zbekcha mushtarak so‘zlar.-Islomobod, 2007.
4. Masica C. The Indo-Aryan Languages.-Cambridge University Press, 1991.
5. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati.-Toshkent, 2000.
6. Shamatov A.N. Markaziy Osiyo va Janubiy Osiyo madaniy aloqalari.-Toshkent, 2010.
7. Narang G.C. Urdu Language and Literature.-New Delhi, 2004.
8. Faruqi Sh.R. Urdu Literary Culture.-Oxford University Press, 2001.

<sup>8</sup> Schmidt R. L. Urdu: An Essential Grammar. — London: Routledge, 1999. — 18–22 p.